

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN
FOYDALANISH

Z.T.Xidirova

*Renessans ta'lim universiteti
Filologiya va tarix fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

*Received: 06.06.2026
Revised: 07.06.2026
Accepted: 08.06.2026*

KALIT SO'ZLAR:

*innovatsion metodlar,
interfaol ta'lim,
pedagogik
texnologiyalar,
kommunikativ
yondashuv,
kompetensiyaviy
yondashuv, nutqiy
kompetensiya, axborot-
kommunikatsiya
texnologiyalari,
ko'rgazmali vositalar,
kitobxonlik madaniyati,
intellektual o'yinlar,
sun'iy intellekt, o'zbek
tili o'qitish metodikasi.*

Mazkur ilmiy maqolada o'zbek tilini o'qitish jarayonida an'anaviy hamda innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari hamda ularning amaliy samaradorligi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, interfaol ta'lim texnologiyalari, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda vizual vositalarning o'quv jarayonidagi o'rni masalasiga ham diqqat qaratiladi. Shuningdek, dars jarayonida klaster, mevali daraxt, qayta so'rash, topishmoq va tez aytishlar, intellektual o'yinlar hamda axborot texnologiyalari, faollashtiruvchi metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ushbu metodlarning o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta'lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinib, uning mazmuni, shakli va metodlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvga ega hamda yuqori kommunikativ kompetensiyali shaxsni shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor

vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilini o'qitish jarayonini innovatsion metodlar asosida tashkil etish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida e'tirof etiladi. An'anaviy ta'lim tizimi asosan bilimlarni tayyor holda uzatishga asoslangan bo'lib, unda o'quvchi ko'proq passiv qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi. Biroq zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida ko'rishni, uning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Interfaol metodlar, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda zamonaviy vizual vositalar o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi va samaradorlikni oshiradi.

Asosiy qism. O'zbek tilini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion metodlar o'quvchilarning faolligini kuchaytirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois o'quv jarayonini interfaol, ijodiy va texnologik asosda tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaraladi. Innovatsion metodlarning nazariy-metodologik asoslari konstruktivistik yondashuvga tayanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchi ta'lim jarayonining passiv qabul qiluvchisi emas, balki bilimni mustaqil ravishda kashf etuvchi faol subyekt hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ijodiy yondashuvini shakllantirish va bilimlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilini o'qitishda interfaol metodlar alohida ahamiyatga ega. Metod (yunoncha) — muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish (bilish) usullari majmui. Metod tushunchasining falsafiy ma'nosi hodisalarni kuzatish va ularni ilmiy jihatdan tasnif qilish bo'lsa, uning didaktika o'rganadigan tomoni talabani bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish va ularni amaliyotda qo'llash demakdir. “O'qitish usuli ta'limning yuragi hisoblanadi.”

Pedagogika fanlari doktori, metodist-olim A.Q.G'ulomov ta'lim metodlarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi.

1. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar:
 - bilimlarni tayyor holda bayon etish metodi;
 - bilimlarni suhbat vositasida bayon qilish metodi;
 - bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodi.
2. Talaba faoliyati bilan bog'liq (1-jadval) metodlar:
 - reproduktiv (tayyor o'quv materialini bilan ishlash) metodi;
 - qisman izlanuvchanlik;
 - izlanishga asoslangan metodlarga bo'lish mumkin.

Ona tili o'qitish metodikasining ta'lim metodlari ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bilan bir qatorda kengayib, rivojlanib bormoqda. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda

“Umumta’lim maktablari uchun Davlat ta’lim standartlari”ning qabul qilinishi ta’lim sistemasiga muayyan inson shaxsini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan talablarni qo’ydi. Yangilangan ta’lim metodikasi umumjahon pedagogikasida samarali hisoblangan ongli verbal-kognitiv ta’lim sistemasiga asoslangan holda rivojlantirilishi, interaktiv metodlar asosida takomillashtirilishi zamon talabiga mos, milliy me’yorlarga uyg’un bo’lishi zarur. Yuqorida sanab o’tilgan an’anaviy ta’lim metodlarini chuqur o’rganish, rivojlantirish va umumjahon ta’lim metodlariga yaqinlashtirishga urinish quyidagi natijalarni beradi:

1. Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi:

— darslik va o’quv qo’llanmalariga asoslanish;
— ko’rgazmali didaktik vositalarga asoslanish (audio-videokassetalar, muayyan mavzudagi magnitofon yozuvlari, ona tilidan slayd-jadvallar, o’quv kompyuter disketlari, dars mavzularini yoritish uchun mo’ljallangan o’quv rasmlari, portret, peyzaj (rang-tasvir), tayyor badiiy-ramziy, ma’rifiy matnlar).

2. Yo’naltiruvchi ta’lim metodi. O’quvchi faoliyatini bosqichli, sistemali yo’naltiruvchi (yozma va og’zaki) topshiriqlar asosida jadallashtirish.

3. Muammoli ta’lim metodi.

4. Ongli — verbal-kognitiv ta’lim metodi (Kashfiyot ta’lim metodi).

Yuqoridagi ta’lim metodlariga asoslangan holda talaba faoliyatini quyidagicha ta’riflash mumkin:

1. Ongli kuzatish va xotirada saqlash metodi.

2. Yo’naltiruvchi topshiriqlar yordamida izlanish va xulosalar chiqarish, bahs va munozara metodi.

3. Muammoni yechishga qaratilgan, maqsadli ijodiy faoliyat metodi.

4. Mustaqil va ijodiy izlanish orqali kashf qilish (matn yaratish) metodi.

O’quvchilar yuqoridagi metodlar yordamida o’zi egallagan bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantiradi, amaliy-ijodiy tatbiq bilan shug’ullanadi.

Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi ta’lim sistemasida eng qadimiy va sinalgan usullardan biri hisoblanadi. Bu metod bilan ishlashda o’qituvchi ortiqcha toliqmaydi: oldindan tayyor, talaba uchun tushunarli holatga keltirilgan o’quv topshiriqlari va mashqlarni bajarishni tavsiya qiladi. O’quv-texnik vositalardan samarali foydalanadi. “Yaxshi o’qituvchi bilimni beribgina qolmaydi, balki uni qanday o’rganishni ham o’rgatadi.”-deb John Dewey bejiz aytmagan.

O’qitish metodlarini tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

— ona tili izchil kursining ayrim mavzularini o’qiganish reproduktiv (tayyor o’quv materialini bilan ishlash) va muammoli ta’lim

(izlanuvchanlikka asoslangan o’qitish) metodlarini birgalikda olib borish;

- til o’qitish metodlarini tanlashda o’quvchilarning tabiiy qobiliyati, o’zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash imkoniyati, yosh xususiyatlarini ham bir ma’noli va ko’p ma’noli so’zlarini topish;

- =====
- berilgan matndagi notanish so‘zlar ma’nosini izohlash;
 - ularning ma’nodoshlari, zid ma’nolisi, shakldoshlari, uyadoshlari bilan ishlash; - turli lug‘atlar yoki qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlashni o‘rganish.

O‘quvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Mavzuga oid muammoni tanlash va tushuntirish.	1. Muammoni anglab yetish va yechimini topishga urinish
2. Talabani muammoning yechimini to‘g‘ri tanlashga yo‘naltirish:	2. Muammoning yechimini topishga oid tahlilda faol qatnashish. Alohidaliklarni ajratish, o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash, sharhlash, tanlash.
3. Muammoning yechimi asosida mavzu materialini izchil bayon qilish.	3. Yechim variantlari orasidan eng to‘g‘risi, eng ma’qulini tanlashni o‘rganish. Yechim matnida mavjud bo‘lgan nuqson va g‘alizliklarni bartaraf etish.
4. Mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarish.	4. Xulosalarni o‘rtoqlashish va hukm chiqarish
5. Xulosa va natijalarni amaliyotga tatbiq etishga oid mashqlar va ko‘rsatmalar berish.	5. Egallangan bilim va malakalarni amaliy ishga tatbiq etishni o‘rganish.
6. Egallangan bilim darajasini aniqlash va nazorat qilish.	6. O‘z-o‘zini va o‘rtoqlari bilimini mustaqil nazorat qilish (test tuzish va yechish).

“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Debat”, “Insert” kabi metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi. Ayniqsa, klaster metodini tarqatma materiallar asosida tashkil etish samarali natija beradi. O‘quvchilarga klaster shaklidagi blankalar berilib, ular mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni tizimli tarzda ifodalaydi. Bu bilimlarni umumlantirish va vizual shaklda tasavvur qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, “Mevali daraxt” metodi ham o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metodda o‘quvchilar o‘rganilgan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni “mevalar” ko‘rinishida ifodalaydi. Bu yondashuv bilimlarni tizimlashtirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va darsni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida kommunikativ yondashuv muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuv tilni real muloqot vositasi sifatida o‘rgatishga asoslanadi va o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv esa bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning hayotiy vaziyatlarda til imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi.

Multimedia vositalari, elektron darsliklar va raqamli platformalar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi hamda bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Hozirgi rivojlangan raqamli davrda o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish tobora murakkablashib bormoqda. Shu sababli o'qituvchi mavzuni axborot texnologiyalari asosida, ya'ni sodda, qisqa, interaktiv va vizual tarzda tushuntirishi samarali hisoblanadi. Bu usul, ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqatini jalb etishda va mavzuni tez o'zlashtirishida yuqori natija beradi.

Dars jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlashda "qayta so'rash" metodi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi mavzuni tushuntirish davomida oldingi ma'lumotlarni o'quvchilardan qayta so'rab, ularning tushunganlik darajasini aniqlaydi. Bu metod diqqatni faollashtiradi, bilimlarni mustahkamlaydi va eslab qolish jarayonini kuchaytiradi.

Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish ham muhim didaktik ahamiyatga ega. Tadqiqotlarga ko'ra, o'quvchilar axborotning asosiy qismini ko'rish orqali qabul qiladi. Shu bois rasmlar, sxemalar, diagrammalar va boshqa vizual materiallardan foydalanish mavzuni tez va oson o'zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'zbek tili darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish ham samarali metod hisoblanadi. Topishmoqlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, tez aytishlar esa nutq ravonligi, talaffuz aniqligi va fonetik kompetensiyani shakllantiradi. Bu metodlar darsni qiziqarli va jonli tashkil etishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ham muhim pedagogik vazifalardan biridir. Shu maqsadda "Yosh kitobxon" tanlovi, "Kitobxon oila" loyihasi, "Eng faol kitobxon"ni rag'batlantirish hamda "Ustoz qo'ng'irog'i" kabi metodlar samarali natija beradi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni muntazam mutolaaga undaydi.

O'zbek tili ta'limi tizimida an'anaviy va innovatsion metodlarning qiyosiy tahlili ularning didaktik samaradorligi, metodologik asoslari hamda ta'lim jarayoniga ta'sir mexanizmlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvlar ta'limning maqsadi, mazmuni va shakllariga nisbatan turlicha konseptual qarashlarga asoslanadi.

An'anaviy ta'lim modeli asosan reproduktiv faoliyatga tayangan bo'lib, unda o'quvchilarga tayyor bilimlarni uzatish ustuvor hisoblanadi. Bu jarayonda o'qituvchi asosiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi, o'quvchi esa bilimni qabul qiluvchi passiv ishtirokchi rolini bajaradi. Mazkur yondashuv bilimlarning tizimliliigi va izchilligini ta'minlasa-da, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda cheklangan imkoniyatlarga ega.

Innovatsion metodlar esa konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslanib, o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida talqin etadi. Ushbu metodlar doirasida bilimlar tayyor shaklda berilmaydi, balki o'quvchilar tomonidan faol bilish jarayonida o'zlashtiriladi. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, guruhli ishlar, didaktik o'yinlar

hamda ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi va ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, an'anaviy metodlar ta'limning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynasa, innovatsion metodlar ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, tahlil qilish va sintez qilish jarayonlarini faollashtiradi. Ayniqsa, o'quvchilarni muntazam ravishda qayta so'rash, ularning avvalgi bilimlarini faollashtirish hamda interaktiv savol-javoblar tashkil etish bilimlarning uzoq muddatli xotirada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim modelida o'qituvchining funksional roli transformatsiyaga uchrab, u bilim beruvchi subyektdan ko'ra fasilitator, moderator va yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantiradi va o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim samaradorligini oshirishda an'anaviy va innovatsion metodlarning integratsiyasi eng optimal yondashuv hisoblanadi. Bunday sintez ta'lim jarayonida bilimlarning tizimlilikini saqlab qolgan holda, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi.

“Ot so'z turkumi” mavzusini o'qitishda zamonaviy didaktik yondashuvlardan, xususan interaktiv va muammoli ta'lim elementlaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini jamlash va mavzuga qiziqishini oshirish maqsadida didaktik topishmoqdan foydalanishi ham ahamiyatlidir. Dars jarayonida “To'rt oyoqli, temir tuyoqli” topishmog'i beriladi, o'quvchilar uning javobini “ot” deb aniqlaydilar. Keyingi bosqichda o'qituvchi aniqlashtiruvchi savol sifatida “Qaysi ot?” savoli beriladi. O'quvchilar esa bu so'zning “ot hayvoni” ma'nosini ifodalashini aytadilar. So'ngra o'qituvchi “U qanday so'roqqa javob bo'ladi?” deb savol tashlaydi. O'quvchilar esa uning “nima?” so'rog'iga javob bo'lishini bayon qiladilar.

Shundan so'ng o'qituvchi ot so'z turkumining grammatik xususiyatlarini umumlashtirib, uning “kim?”, “nima?” va “qaysi?” so'roqlariga javob bo'lishini tushuntiradi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda mavzuni amaliy misollar orqali o'zlashtirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish hamda bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilini o'qitish jarayonida innovatsion metodlardan kompleks va maqsadli foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli oshiradi. Xususan, interfaol, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. “Klaster”, “Mevali daraxt”, “Qayta so'rash” kabi metodlar o'quvchilarning bilimlarni tizimlashtirish, vizual idrok etish va dars jarayonida faol ishtirokini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ko'rgazmali vositalardan foydalanish murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qilib, axborotni qabul qilish hamda eslab qolish darajasini oshiradi.

Shuningdek, xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan, jumladan, topishmoq va tez aytishlardan foydalanish oʻquvchilarning mantiqiy tafakkuri, nutq ravonligi va fonetik kompetensiyasini rivojlantiradi. “Zakovat” kabi intellektual oʻyinlar esa ularning tezkor fikrlashi, jamoada ishlash malakasi va bilim faolligini kuchaytiradi. Zamonaviy taʼlimda sunʼiy intellekt asosidagi tushuntirish usuli hamda raqamli texnologiyalarni qoʻllash oʻquvchilarning darsga qiziqishini oshirib, zamonaviy fikrlash tarzini shakllantiradi. Demak, innovatsion metodlardan samarali foydalanish nafaqat taʼlim sifatini yuksaltiradi, balki oʻquvchilarning intellektual, ijodiy va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
3. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.
4. Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taʼlim sohasiga oid farmon va qarorlari.
6. Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2018.
7. Tolipov Oʻ., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
8. Xolmatova F. Oʻzbek tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2019.
9. Ziyomuhamedov B., Tojiev M. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2009.